

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

**AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**



“TASDIQLAYMAN”

O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor

M. JUMAMURATOV

» *avgust* 2021-yil

O‘ZBEK FOLKLORI

fani bo‘yicha

(1-kurslar uchun)

ISHCHI O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar
Ta‘lim sohasi: 110000– Pedagogika
Ta‘lim yo‘nalishi 60111400 – O‘zbek tili va adabiyoti

Mashg‘ulot turi	Ajratilgan soat	Semestr
Ma‘ruza:	20 soat	I
Amaliy mashg‘uloti:	40 soat	I
Seminar mashg‘uloti:	30 soat	I
Umumiy auditoriya soati:	90 soat	I
Mustaqil ta‘lim soati:	90 soat	I
Umumiy o‘quv soati:	180 soat	I


Ishchi fan dasturi Nukus davlat pedagogika institutining 2021-yil 28-avgustdagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan „O‘zbek folklori“ fani dasturi asosida tayyorlangan.

Tuzuvchi: S.Bekchanova – Nukus DPI O‘zbek adabiyoti kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD.

Taqrizchilar: I.Qurbonboyev – Berdaq nomidagi QDU O‘zbek filologiyasi kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.

H.Allambergenov – Nukus DPI O‘zbek adabiyoti kafedrasida katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD.

Ishchi fan dasturi Turkiy tillar fakulteti kengashining 2021-yil 28 - avgust dagi 1 - sonli bayonnoma bilan ma’qullandi.

Fakultet kengashi raisi:  B.Davletov

Ishchi fan dasturi O‘zbek adabiyoti kafedrasida majlisida muhokama qilinib, 2021-yil 27 - avgust dagi 1 - sonli bayonnoma bilan tavsiya qilingan.

Kafedra mudiri:  S.Matyakupov

Fanning ishchi o‘quv dasturi Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Kengashining 2021-yil „28“ avgust dagi „1“-sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

60111400 – O‘zbek tili va adabiyoti

Fanning modul kodi	O‘quv yili	Semestr	ESTS-kreditlar
O‘F2056	2021-2022	1	6
Fanning modul turi	Ta‘lim tili		Haftada dars soatlari
tanlov	o‘zbek		6
Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari	Mustaqil ta‘lim	Jami yuklama
O‘zbek folklori	90	90	180

I. Fanning mazmuni

O‘quv fanining maqsadi va vazifasi

“O‘zbek xalq og‘zaki ijodi” fanining **maqsadi** talabalarni xalq og‘zaki ijodining o‘ziga xos xususiyatlari, uning taraqqiyot bosqichlari, og‘zaki ijod janrlari va asoslarini o‘rgatish va talabalarni o‘zbek xalq og‘zaki ijodining rivojlanish tamoyillari, o‘ziga xos xususiyatlari, bu adabiyotning didaktik xususiyati kabi bilimlar bilan qurollantirishdan iborat.

Fanning **vazifasi** talabalarni og‘zaki ijod namunalarini chuqur tahlil eta olishga o‘rgatish va ularni yuksak axloqiylik, ruhiy barkamollik, umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, ma‘naviy merosga muhabbat ruhida tarbiyalashdir. Talabalarga bolalar adabiyotining jahon adabiyotida tutgan o‘rni, folklor bilan chambarchas bog‘liqligi, tarbiyaviy mohiyati, didaktik xususiyatlari, bolalarga bag‘ishlangan asarlarning kitobxonlar yosh xususiyatlariga ko‘ra tavsiflanishi, badiiy uslubiy izlanishlar, taraqqiyot tamoyillari, janrlar rang-barangligi, bolalar adabiyotining atoqli ijodkorlari va ularning asarlari yuzasidan tushuncha berish ko‘zda tutiladi.

II. Asosiy nazariy qism (ma‘ruza mashg‘ulotlari)

(1-jadval)

T/r	Ma‘ruza mashg‘ulotlari mavzulari	Ma‘ruza mashg‘ulotlari mazmuni	Dars soatlari hajmi
I semestr			
1	Kirish. Xalq og‘zaki ijodi so‘z san‘ati sifatida. Xalq og‘zaki ijodining o‘ziga xos xususiyatlari	San‘at va badiiyat haqida ma‘lumot beriladi. Xalq og‘zaki ijodining o‘ziga xos belgilariga tadrijiy tarzda to‘xtalinadi. Badiiy adabiyot mohiyati ochib beriladi.	2
2	Mif, afsona, rivoyatlarning janr xususiyati	Mif tushunchasi izohlanib, uning xalq og‘zaki ijodi asarlari tarkibiga badiiy estetik holatda o‘tish jarayoni aytiladi. Mifologik tafakkurning badiiy estetik tafakkurga o‘tish bosqichlari epos, ertak, qo‘shiq misolida ochib beriladi. Afsona, rivoyat, naql atamaları haqida ma‘lumot. Ularning umumiy va o‘ziga xos jihatlari. Afsona va rivoyatlar tasnifi. Afsona, rivoyat va naqlarda ifodalangan badiiy estetik mazmun ochiladi. Osmon yoritgichlari, tog‘, daraxt, suv, olov va hayvonlar bilan bog‘liq afsona va rivoyatlar misolida mavzu tahlil etiladi. To‘maris va Shiroq rivoyatlari asosida Vatan mavzusi yoritiladi.	2

3	Naqlarning janr xususiyati	Naql atamasi haqida ma'lumot. Naqlning o'ziga xos jihatlari. Naqlar tasnifi. Naqllarda ifodalangan badiiy estetik mazmun ochiladi. Osmon yoritgichlari, tog', daraxt, suv, olov va hayvonlar bilan bog'liq afsona va rivoyatlar misolida mavzu tahlil etiladi. To'maris va Shiroq rivoyatlari asosida Vatan mavzusi yoritiladi.	2
4	Mavsumiy va oilaviy marosim folklori namunalari va ularning badiiyati	Marosim va marosim folklori tushunchalari izohi. Marosim folklorining tarixiy asoslari (Sust xotin, Choy momo, Loy tutish, Shoh moylar). Mavsumiy marosim folklorida so'z magiyasining badiiy estetik sathga o'tishi va boshqa masalalar yoritiladi. Xalqona taqvimlar, Navro'z va boshqa marosimlarning verbal tizimi tahlil etiladi. Oilaviy marosim tushunchasi, tasnifi, turlari izohlanadi. Yor-yor, kelin salom, o'lan va boshqa janrlarning badiiyati, ma'no qatlamlari ko'rsatiladi. Ushbu marosim janrlarining obrazlar tizimi, she'riy tuzilishi ohang yo'llari tahlil etiladi, o'ziga xos jihatlari yoritiladi.	2
5	Xalq dostonlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari. Qahramonlik dostonlari	Doston janri haqida ma'lumot. Doston - xalq og'zaki ijodining sinkretik janri sifatida. Dostonda badiiy matn (nazm va nasr) va musiqaning o'rni. Xalq baxshilari haqida ma'lumot. Xalq dostonlarining ijro an'anasiga ko'ra (Samarqand, Xorazm, Farg'ona) turlari. Dostonlarning tasnifi (qahramonlik, romanik, tarixiy, kitobiy, jangnoma dostonlari) haqida ma'lumot. Xalq dostonlarida turkumlik. Dostonlarning tasnifi masalalari. "Alpomish" dostoni. "Alpomish" – qadimiy xalq qahramonlik eposi sifatida. Dostonning variant va versiyalari haqida ma'lumot. "Alpomish" dostoni haqida munozaralar tahlili. "Alpomish" dostonining to'liq matni nashrlari tahlili. "Go'rug'li" turkumi dostonlari. Go'rug'li turkumining shakllanish tarixi. "Alpomish" va "Go'ro'g'li" dostonlarida alplik tizimi, dostonlarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari o'rganiladi. Epos va etnos masalasi ko'rib chiqiladi. Dostonlardagi yetakchi qahramonlar genezisi tadrijiy bosqichlari yoritiladi. Asosiy motivlarning syujet ko'lamidagi o'rni, dostonlardagi epik qoliplar, an'anaviy she'riy takrorlarning badiiyati keng yoritib beriladi.	2
6	Romanik dostonlarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. Kitobiy dostonlar	"Ravshan", "Qunduz va Yulduz", "Kuntug'mish", "Malika Ayyor", "Orzugul" kabi dostonlar poetikasi tahlili orqali romanik dostonlarga xos xususiyat va belgilari ochiladi. Romanik dostonlarning yetakchi motivlari, ularning qahramonlari, syujet tiplari, badiiy tasviriy vositalari, g'oyaviy qatlamlari tahlil qilinadi. "Layli va Majnun", "Farhod va Shirin", "Bahrom va Gulandon", "Ibrohim Adham qissasi" kabi	2

		dostonlar asosida folklor – adabiyot, adabiyot – folklor tadrijiy o‘tish bosqichlarini, bu dostonlarning xalq badiiy estetik tafakkuri rivojidadagi o‘rni va xizmatlari ko‘rsatiladi, folkloriy tafakkurning qonuniyatlari borasida so‘z yuritiladi.	
7	Xalq ertaklari Xalq maqollari va topishmoqlar. Bolalar folklori va ularning talqinlari, badiiy xususiyatlari.	<p>Ertak xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy ommaviy janrlaridan biri ekani. Ertak janrini anglatuvchi atamalar. Ertakda xalq hayoti, orzu-istaklari, psixologik dunyosining aks etishi. Xalq ertaklarining janr xususiyatlari. Ertaklarning mazmuniga ko‘ra tasnifi. Ertaklarda boshlama, asosiy qism, yakunlama va yetakchi syujet hamda motivlarning o‘rni masalalari.</p> <p>Hayvonlar haqidagi ertaklar genezisi, ularning mifologik va mavsumiy marosimlar bilan aloqasi badiiy ramz va timsollari haqida so‘z boradi. “Susambil”, “Tuxum bilan buyrak”, “Qirq quloq”, “Bo‘ri bilan tulki” kabi ertaklar tahlili vositasida nazariy fikrlar dalillanadi.</p> <p>Sehrlil-fantastik ertaklar mag‘zidagi xalq falsafiy dunyoqarashi va uning badiiy talqinlari, ramz va timsollari ochiladi. “Kulsa gul, yig‘lasa dur”, “Ur, to‘qmoq”, “Ahmadlar”, “Gungula”, “Dunyoda yo‘q hunar” kabi ertaklar tahlili orqali sehrlil-fantastik ertaklarning badiiyati, g‘oyaviy mazmuni ko‘rib chiqiladi.</p> <p>Hayotiy maishiy ertaklarda ijtimoiy hayot muammolari ifodasi. Ularda do‘stlik, mardlik, zakiylik, insonparvarlik kabi shaxs fazilatlarining ulug‘lanishi. “Uch og‘a-ini botirlar”, “Malikai Husnobod”, “Zolim podsho”, “Ziyod botir”, “Uch ko‘r va bir yigit”, “Egri va to‘g‘ri” kabi hayotiy-maishiy ertaklarning badiiy qimmatini, g‘oyaviy ko‘lami yoritiladi. Hayotiy-maishiy ertaklarga xos syujet tiplari, yetakchi motivlar, asosiy qahramonlar o‘rganiladi.</p>	4
8	Qo‘shiq: Mehnat qo‘shiqlari va termalar. Lirik qo‘shiqlar	<p>Xalq qo‘shiqlari - xalq og‘zaki ijodining keng tarqalgan lirik janri sifatida. Xalq qo‘shiqlarida milliylik. Qo‘shiqlarning janr xususiyatlari, ularning ijro o‘rni, ohang yo‘llari, an‘anaviy takrorlari, mavzu turlari o‘rganiladi.</p> <p>Mehnat qo‘shiqlarining folklor san‘atidagi o‘rni ochiladi. Qo‘shiqlarning mehnat turlariga ko‘ra farqlanishi, mehnat jarayoni va ibtidoda turli marosimlar bilan bog‘liq jihatlari ko‘rsatiladi. Mehnat qo‘shiqlari tarkibiga kirgan lirik xarakterdagi namunalar, xususan, “Yozi qo‘shiqlari” va boshqa misollar keng talqin etiladi.</p> <p>Lirik qo‘shiqlarda parallelizm, vazn, qofiya, badiiy til masalalari, ramz va timsollarning vazifalari</p>	2

		ko'rsatiladi. Ularning inson qalb kechinmalari tarjimoni ekanligi ta'kidlanadi. Qo'shiqlarning estetik tarbiyadagi o'rni haqida ma'lumot beriladi.	
9	Latifa va lof janrlarining o'ziga xos xususiyatlari. Askiya. Tomosha san'ati.	<p>Latifa xalq og'zaki ijodining keng tarqalgan kichik nasriy janri sifatida. Latifalarning janr xususiyatlari. Sharq xalqlari latifalaridagi mushtaraklik. Nasriddin afandi timsoli. Nasriddin xalqning ideal qahramoni sifatida. Afandi obrazining yaratilishidagi ikki yo'nalish Nasriddin Afandi obrazining genezisi va unga yondash Ovul Patta, Jiyron Chechan kabi qahramonlar bilan bog'liq jihatlar. Latifalarning badiiy qimmatlari. Ularning kompozitsion jihati. Latifalarning til xususiyatlari. Zamonaviy latifalarning ijtimoiy mazmuni. Loflar – askiyaga yaqin turuvchi janr sifatida. Mubolag'a va uning turlari haqida ma'lumot. Loflardagi mubolag'a san'atining o'rni va badiiy vazifalari.</p> <p>Askiya janrining o'ziga xos belgilari. Askiya – o'zbek xalqining milliy merosi sifatida. Askiya san'atining o'zbek xalq tilining o'ziga xos jihatlarini namoyon etuvchi noyob folklor janri ekanligi. Askiyaning payrov, gulmisiz, o'xshatdim va boshqa turlari. So'z o'yinlarining askiyadagi ahamiyati. Askiyachilar haqida ma'lumot. Askiyachi ijodida omonim so'zlardan foydalanish mahorati.</p> <p>Xalq dramasi haqida ma'lumot. Tomosha san'atining o'zbek teatr tarixi ibtidosida turishi, tomoshalarning xalq bayram sayllari va marosimlari bilan genetik bog'liq jihatlari. Xalq dramasi janr xususiyatlari. Xalq dramasida kompozitsion ixchamlik, syujetning tez rivojlanishi. Dramada satira va yumorning o'rni, ahamiyati. Xalq dramasida askiya va lof janrlarining belgilari. Xalq dramalarining badiiyati.</p>	2
I semestr bo'yicha jami			20

Ma'ruza mashg'ulotlari multimediya qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada akadem guruhlar oqimi uchun o'tiladi. O'quv ma'lumotlarining sifati va samarali tashkil etishga ta'sir etuvchi quyidagi intelfaol usullardan klaster, aqliy hujum, konsentual jadval, venn-diagrammasi, keys-stadi kabilardan keng foydalanadi.

III. Amaliy mashg'ulotlar.

Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlardan bakalavrlarning asarlarni o'qish, tahlil qilish bo'yicha ko'nikmalar hosil qilishi va erishilgan natijalarni kelgusi faoliyatlarida qo'llay bilishi nazarda tutiladi. Shuningdek, amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda, asosan, birlamchi nazariy manbalar bo'yicha savol-javoblar uyushtiriladi. Savol-javoblar jarayonida mavzularning umumiy xususiyatlari haqida umumlashmalarga kelinadi.

Amaliy mashg'ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

(2-jadval)

T/r	Amaliy mashg'ulotlar mavzulari	Dars soatlari hajmi
I semestr		
1	Mif, afsona, rivoyatlar va ularning o'ziga xos xususiyatlari	2
2	Naqlning o'ziga xos jihatlari.	2
3	“Navro‘z” bayrami an‘analari, Oilaviy marosimlar tadriji.	2
4	Baxshilik san‘ati, dostonchilik maktablari va doston turlari	2
5	“Alpomish” dostoni	2
6	Xalq qo‘shiqlari	2
7	Xalq ertaklari tahlili.	4
8	“Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni.	4
9	Kuntug‘mish” dostoni tahlili.	4
10	Ravshan” dostoni tahlili	4
11	“Rustamxon” dostoni tahlili	4
12	Xalq maqollari va topishmoqlar talqini	2
13	Latifa va loflarning qiyosiy talqinlari	2
14	Askiya- so‘z san‘ati turi	2
15	Tomosha san‘ati janrlari tahlili	2
	Isemestr bo‘yicha jami:	40

IV. Seminar mashg'ulotlari

Seminar mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlarini tashkil qilishda tavsiya etilgan ilmiy muammo yoki masala yuzasidan talabalarga avvaldan seminar rejasi va unga muvofiq adabiyotlar ro'yxati beriladi. Seminar mashg'ulotlariga ko'proq nazariy muammolar olib chiqilishi maqsadga muvofiqdir.

Talabalar seminar mashg'ulotlarida Alisher Navoiy ijodi, asarlarining badiiyati, mazmun-mundarijasini o'rganadilar, shu soha bo'yicha nazariy va amaliy ma'lumotlarga ega bo'ladilar hamda o'zlashtirilgan ma'lumot asosida Alisher Navoiy ijoi haqida tushunchaga ega bo'lishi ko'zda tutiladi.

Seminar mashg'ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

(3-jadval)

T/r	Seminar mashg'ulotlari mavzulari	Dars soatlari hajmi
I semestr		
1	Xalq og'zaki ijodining o'ziga xos belgilari.Xalq og'zaki ijodining janrlari. Janrlararo munosabatlar	2
2	Mavsumiy marosim folklori namunalar va ularning badiiyati	2
3	Oilaviy marosim folklori namunalar va ularning badiiyati	4
4	Qahrmonlik dostonlari xususiyatlari	4
5	Ishqiy-romanik dostonlar tabiati	4
6	Kitobiy dostonlar. Xalq kitoblarining janr xususiyatlari	2
7	Xalq ertaklari turlari va ulardagi obrazlilik	4
8	Mehnat qo‘shiqlarini yaratilishi, tarixi va badiiyati.Lirik qo‘shiqlarda ramziylik	2
9	Bolalar folklori: janrlari taraqqiyoti va xususiyatlari. Alla janri xususiyatlari va badiiyati	2
10	O‘zbek xalq maqollari janr xususiyatlari va genezisi.Topishmoq janri va undagi badiiy san‘atlarning o‘rni	2
	II semestr bo‘yicha jami:	30

V. Mustaqil ta'limning shakli va mazmuni

Talabaga mustaqil ta'limni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- Darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- Tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- Maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- Talabani o'quv-ilmiiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzulami chuqur o'rganish.
- O'rganilmagan, muammoli mavzular bo'yicha tezis, maqolalartayyorlash;
- Badiiy asarlarni o'qish va mutolaa qilish;
- Faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari.
- Masofaviy (distantion) ta'lim.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari:

T/r	Mustaqil ta'lim mavzulari	Dars soatlari hajmi
I semestr		
1	Mif va badiiy adabiyot munosabatlari.	6
2	Mustaqillik yillarida xalq og'zaki ijodining davlat maqomiga erishishi, mifologik tasavvur va bilimlarni o'rganish imkoniyatining tug'ilganligi.	6
3	Bolalar folklorida mifologik elementlar.	6
4	Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida mifologik dunyoqarash unsurlari.	6
5	Xodi Zarif o'zbek folklorshunosligining asoschisi	6
6	To'ra Mirzaev – folklorshunos.	6
7	Bugungi o'zbek folklorshunosligining rivoji.	6
8	Xalq dostonlarini o'rganish tajribalari va yangi nazariy qarashlar	8
9	O'zbek mifologiyasi xalq qadiyatlarining tarkibiy qismi sifatida	8
10	"Dada Qo'rquv kitobi" va "Alpomish" dostonida mifologik tizimning qiyosiy tahlili.	8
11	Xalq qo'shiqlarida mifik timsollar.	6
12	Ertaklarda mifik unsurlar.	6
13	Alisher Navoiy ijodi va mif.	6
14	O'zbek folklorshunosligining tadrijiy taraqqiyotida mifologik tasavvurlar tadqiqi.	6
	J A M I	90

VI. Tavsiya etilayotgan oraliq nazorat savollari

I semestr

1. Xalq dostonlari folklor boshqa janrlaridan qaysi xususiyatlari bilan farq qiladi?
2. Xalq dostonlarining asosiy mavzusi nimalardan iborat?
3. Baxshichilik san'ati haqida so'zlash.
4. Baxshilarning hammasiga ham shoir atamasini qo'llash mumkinmi?
5. Dostonning olamshumul ahamiyati nimada deb o'ylaysiz?
6. «Go'ro'g'li» turkumi dostonlari qaysi xalqlar orasida tarqalgan?
7. O'zbek «Go'ro'g'li»si ulardan nimasi bilan farq qiladi?
8. «Go'ro'g'li» turkumi dostonlarida qanday g'oyalar qo'llangan?
9. Dostonlarning ma'rifiy, axloqiy-estetik ahamiyati haqida gapirish.
10. Go'ro'g'lining homiylari Xizr va chiltonlar haqida ma'lumotlar keltirish.
11. Qahramonning nomi, epik shajarasi qanday?

12. «Go`ro`g`li» dostonlarining syujeti va obrazlar tizimi qanday?
13. Go`ro`g`linish oti haqida ma`lumotlar keltirish.
14. Ravshan hatti-harakatlarini qanday baholaysiz?
15. «Ravshan» dostonida saj san`atining berilishi.
16. «Ravshan» dostonida maqollarning keltirilishi.
17. Prezidentimiz Islom Karimovning «Alpomish» dostoniga bergan ta`rifi.
18. «Alpomish» dostonida Boybo`ri va Boysari o`rasidagi ziddiyat sabablari?
19. Zakot o`zi nima?
20. Alpomishning pirlari haqida ma`lumot berish.
21. Alpomishning yoshi bo`yicha qilgan ishlarini sanab berish.
22. Alpomishning oti haqida ma`lumotlar keltirish.
23. Barchinning qo`ygan shartlar.
24. Qo`yilgan shartlar qaysi joylarda bajariladi.
25. Barchin obraziga ta`rif berish?
26. Qultoy qanday obraz?
27. Surhayl kampir qanday obraz?
28. Surhayl kampirning o`g`illari haqida ma`lumotlar keltirish.
29. Qorajonni qanday ta`riflaysiz?
30. Bodom bekach obraziga ta`rif berish.
31. Ultontoz hatti harakatlarini qanday baholaysiz?
32. Tovka oyim haqida ma`lumotlar keltirish.
33. Qayqubod kim va uni ta`riflash.
34. To`y jarayonida qanday irimlar bajarilgan.
35. Qo`shiq deb nimaga aytiladi?
36. Qo`shiqlar tasnifini keltirish.
37. Mehnat qo`shiqlariga qaysilar kiradi?
38. Termalar ijodkorlari kimlar?
39. «Devonu lug`otit turk» asarida qo`shiqqa berilgan ta`rif.
40. Mavsum- marosim va urf- odat qo'shiqlari. Ularnish turlari qanday?
41. Lirik qo'shiqlar.
42. Yig`i yo`qlovlar nima? To`y qo`shiqlariga qaysilar kiradi?
43. Terma deb nimagan aytiladi?
44. Termalar qachon ijro etiladi?
45. Termalar qanday mavzularda yaratiladi?
46. Zamonaviy mavzuda yaratilgan qanday termalarni bilasiz?
47. Termalarning qanday tarbiyaviy ahamiyati bor?
48. Xalq dostonlari fol`klornish boshqa janrlaridan qaysi xususiyatlari bilan farq qiladi?
49. Xalq dostonlarining asosiy mavzusi nimalardan iborat?
50. Baxshichilik san`ati haqida so`zlash.
51. Baxshilarning hammasiga ham shoir atamasini qo`llash mumkinmi?
52. Dostonning olamshumul ahamiyati nimada deb o`ylaysiz?
53. «Go`ro`g`li» turkumi dostonlari qaysi xalqlar orasida tarqalgan?
54. O`zbek «Go`ro`g`li»si ulardan nimasi bilan farq qiladi?
55. «Go`ro`g`li» turkumi dostonlarida qanday g`oyalar qo`llangan?
56. Dostonlarning ma`rifiy, axloqiy-estetik ahamiyati haqida gapirish.
57. Go`ro`g`lining homiylari Xizr va chiltonlar haqida ma`lumotlar keltirish.
58. Qahramonning nomi, epik shajarasi qanday?
59. «Go`ro`g`li» dostonlarining syujeti va obrazlar tizimi qanday?
60. Go`ro`g`linish oti haqida ma`lumotlar keltirish.
61. Ravshan hatti-harakatlarini qanday baholaysiz?
62. «Ravshan» dostonida saj san`atining berilishi.

63. «Ravshan» dostonida maqollarning keltirilishi.
64. Buvraxonning vazirlarining ismi kim edi?
65. Xolmo'min bilan Xolbeka nima sababdan turmush qurolmas edi?
66. Sovchilarga Xolbeka qanday shart qo'ygan edi?
67. Podsho Buvraxon Xolbekani ismini aytganni qanday jazolayman deb aytadi?
68. Xolbeka qanday tush ko'radi?
69. Xolbekaning kanizining ismi kim?
70. Xolbeka qaysi shaharda tugilgan?
71. Xolbeka sandiqqa nima solib suvga oqizadi?
72. Kuntug'mishning otasining ismi kim?
73. Zamoshul kim?
74. Azbarho'ja Kuntug'mishni qanday jazolaydi?
75. Xolbekani Azbarxo'ja qanday taniydi?
76. Gurkiboy kim va u qanday ishlarni amalga oshiradi?
77. Ertak atamasi haqida ma'lumotlar keltirish.
78. Ertaklar tematik jihatdan qanday turlarga bo'linadi?
79. Xalq ertaklarining asosiy xususiyatlari.
80. Ertaklar qanday tarkibiy qismlardan iborat.
81. Hayvonlar haqidagi ertaklarning o'ziga xos xususiyatlari.
82. Sehrli ertaklarning o'ziga xos xususiyatlari.
83. Hayotiy-maishiy ertaklar.
84. Ertaklardagi an'anaviy obrazlar.
85. Ertaklarda badiiy tasvir vositalari.
86. Ertaklarning tarbiyaviy ahamiyati.
87. Latifa janri va atamasini ta'riflash.
88. Latifalarda Nasriddin Afandi timsoli qanday yoritiladi?
89. O'zbek latifalarining mavzu doirasi qanday?
90. Latifalarning badiiy xususiyatlari.
91. Latifa qahramonlari kimlar?
92. Nasriddin Afandi obrazi qachon paydo bo'lgan?
93. Latifalarda kulgi yaratish usullarini izohlash.
94. Mubolag'a san'atining loflardagi o'rniga baho berish.
95. Latifalarning tarbiyaviy ahamiyati.
96. Askiyaning ma'nosi nima? Payrov nima?
97. Askiyachilar musobaqasi qanday bo'ladi?
98. Mashhur askiyachilardan kimlarni bilasiz?
99. Askiyaning qanday turlarini bilasiz?
100. Askiyaning tarbiyaviy ahamiyati nimalardan iborat?

VII. Tavsiya etilayotgan yakuniy nazorat savollari

II semestr

1. O'zbek xalq og'zaki ijodi – so'z san'ati.
2. Mif, afsona, rivoyatlarning janriy farqlanishi.
3. "Avesto" va "Dadaqo'rqut"dagi miflarning tasniflanishi.
4. MAqollarning tasniflanishi masalsi.
5. Folklorizm tushunchasi.
6. Topishmoqlar va maqollarning janriy o'xshashligi va farqlanishi.
7. Topishmoqlarning yozma adabiyot bilan munosabati.
8. Askiya, latifa, loflarning o'rganilishi.
9. Xalq qo'shiqlarida ramzlar.
10. Xalq qo'shiqlarining tasnifi, o'rganilishi.

11. Ertaklarning o‘rganilishi.
12. Ertaklarda motivlarning tasnifi.
13. Doston va baxshi tushunchalari haqida.
14. Baxshi, shomon atamaları genezisi.
15. Dostonlarda ijro an‘anasi.
16. “Alpomish” dostoni tarixiy-tipologik tahlili.
17. “Alpomish” dostonida mifik qatlam.
18. “Go‘ro‘g‘li” dostonlarining kompozitsion umumlashishi.
19. “Malika ayyor” dostoni syujeti va sehrlı ertaklar syujeti qiyosi.
20. Xalq og‘zaki ijodi janrlarida shakl va mazmun mutanosibligi.
21. So‘z – xalq og‘zaki ijodi san‘atining asosiy quroli sifatida.
22. Xalq og‘zaki ijodida majoziy fikr yuritish usulidan foydalanish.
23. Badiiy tasvir vositalaridan foydalanish xalq og‘zaki ijodining asosiy belgisi sifatida.
24. Mustaqillikka erishish oqibatida xalq og‘zaki ijodiga bo‘lgan munosabatdagi ijobiy o‘zgarishlar.
25. Xalq og‘zaki ijodining an‘anaviylik xususiyati.
26. Og‘zakilik xalq og‘zaki ijodining xususiyatlaridan biri ekanligi.
27. Xalq og‘zaki ijodidagi jamoalik belgisi.
28. Xalq og‘zaki ijodida variantlilik va versiyalik, anonimlik belgilari
29. Mif va afsonalar.
30. “Avesto” mifologiya haqidagi eng qadimgi asar.
31. Xalq og‘zaki ijodidagi janrlarning o‘zaro munosabati.
32. Xalq dostonlari matnidagi maqollar, topishmoqlar, iboralar tavsifi.
33. I.A.Karimovning xalq og‘zaki ijodi borasidagi fikrlari.
34. “Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch” asarida xalq qadriyatlariga bo‘lgan yuqori baho tavsifi.
35. Xalq maqollarining janr xususiyatlari.
36. Xalq maqollarining tematikasi.
37. Xalq maqollarini o‘rganish tarixidan.
38. Yozma adabiyotda maqollardan foydalanish usullari.
39. Xalq maqollarining tasnifi masalasi.
40. O‘zbek latifalarida Nasriddin Afandi obrazi.
41. Afandi latifalari va ijtimoiy hayot.
42. Loflar xalq og‘zaki ijodidagi mublag‘a san‘ati qo‘llanuvchi janr sifatid.
43. Lof janrining yozma adabiyot bilan munosabati.
44. Askiya o‘zbek xalq og‘zaki ijodiga xos janr sifatida.
45. Askiya janrining tarixi haqida ma‘lumot.
46. Iyhom askiya janrining bosh san‘ati sifatida.
47. Askiya va yozma adabiyot.
48. Topishmoq janrining o‘rganilish tarixidan.
49. Istiora topishmoq janrining asosiy san‘ati sifatida.
50. Topishmoqning yozma adabiyotdagi lug‘z – chiston, muammo, tarix janri bilan munosabati.
51. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida xalq qo‘shiqlari.
52. Xalq qo‘shiqlarining janr xususiyatlari.
53. Xalq qo‘shiqlari lirik janr sifatida.
54. Xalq qo‘shiqlarining o‘rganilish tarixi.
55. Xalq qo‘shiqlari klassifikatsiyasi.
56. Mehnat qo‘shiqlari va ularning turlari.
57. Mavsumiy-marosim qo‘shiqlari va ularning turlari.
58. Lirik qo‘shiqlar tavsifi.

59. O‘zbek ertaklarining janr xususiyatlari.
60. Xalq ertaklarining o‘rganilish tarixi.
61. Hayotlarda ijtimoiy hayot tasviri va badiiy to‘qima.
62. Ertaklar klassifikatsiyasi.
63. Hayvonlar haqidagi ertaklar tavsifi.
64. Sehrli ertaklar tavsifi.
65. Hayotiy-maishiy ertaklar tavsifi.
66. “Mohistara” ertagida badiiy to‘qimaning o‘rni.
67. “Ozodachehra” ertagida ijtimoiy hayot tasviri.
68. Adabiy ertaklar haqida ma’lumot.
69. Hodi Zarif o‘zbek folklorshunosligining asoschisi sifatida.
70. Xalq dostonlarining janr xususiyatlari.
71. Dostonlarning ijro an‘analari va maktablari haqida ma’lumot.
72. “Alpomish” dostonining xalq qahramonlik eposi sifatidagi tavsifi.
73. “Alpomish” dostonining o‘rganilish tarixi.
74. Ergash Jumanbulbul o‘g‘li hayoti va ijodi.
75. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lining hayoti va ijodi.
76. Po‘lkan hayoti va ijodi.
77. Islom shoir hayoti va ijodi.
78. Xalq og‘zaki ijodi yosh avlodni tarbiyalash vositasi sifatida.
79. Badiiy adabiyot so‘z san’ati
80. Xalq og‘zaki ijodining so‘z san’ati sifatidagi asosiy belgilari
81. Xalq og‘zaki ijodining xos xususiyatlari tavsifi
82. Xalq og‘zaki ijodi davlat maqomida
83. Xalq maqollari haqida ma’lumot
84. Xalq topishmoqlari haqida ma’lumot
85. Xalq qo‘shiqlari haqida ma’lumot
86. Afsona va rivoyatlar
87. Askiya, lof, latifa haqida ma’lumot
88. Xalq ertaklari haqida ma’lumot
89. Xalq dostonlari haqida ma’lumot
90. Taniqli o‘zbek folklorshunos olimlar haqida ma’lumot
91. O‘zbek folklorining o‘rganish muammolari
92. I. A. Karimovning “Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch” asarida Xalq og‘zaki ijodiga bo‘lgan munosabat ifodasi
93. O‘zbek mavsumiy va marosim folklori
94. Termalar
95. O‘zbek folklori va yozma adabiyot xamkorligi
96. O‘zbek bolalar folklori
97. Navro‘z bayramini o‘tkazish an‘analari
98. Oilaviy marosimlar folklori
99. “Alpomish” dostonini o‘rganishdagi yangicha nuqtai nazarlar tavsifi.
100. “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlarida xalq himoyachisi obrazi.

VIII. Fan bo‘yicha talabalar bilimni baholash va nazorat qilish me‘zonlari

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018- sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2018-yil 26- sentabrdagi 3069- son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan „Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risidagi“ nizomga muvofiq ishlab chiqildi.

Fan bo'yicha talabalarining bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar

Mazkur kursda talabalar o'zbek xalq og'zaki ijodi adabiyotining ajralmas qismi ekanligini, og'zaki ijod namunalarining o'ziga xos xususiyatlari, janrlari, ijro usullari, tasvirning shartliligi yuzasidan nazariy **bilimlarni** o'zlashtirishlari zarur.

"O'zbek xalq og'zaki ijodi" fanida quyidagi **ko'nikmalar** shakllantiriladi: o'zbek xalq og'zaki ijodi o'zbek adabiyotining ajralmas qismi sifatida o'rganiladi: ma'ruza, seminar, reyting tizimi kabi ta'lim shakllari vositasi sifatida o'qitiladi; axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va undan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi talab qilinadi.

Talabalar quyidagi **malakalarga** ega bo'lishlari lozim: o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalarini tahlil qilib, muayyan xulosalar chiqara olishlari; o'zbek xalq og'zaki ijodining yetakchi tendensiyalari haqida bilimlarini amaliyotga tatbiq etishlari talab qilinadi. Shuningdek, talaba o'z kasbiy faoliyatida fan bo'yicha asosli, mustaqil qarorlarni qabul qila olishi; tegishli bakalavriyat ta'lim yo'nalashi bo'yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi; yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va o'z mehnatini ilmiy asosda tashkil qila olishi lozim. Samarali metod va texnologiyalarni o'quv jarayonlariga tatbiq etish bo'yicha; an'anaviy va noan'anaviy metodlar, ilg'or pedagogik texnologiyalarni fan va mavzularni o'tish chog'ida tanlay olishi, o'z fanida metod va texnologiyalarni ijodiy qo'llay olishi, faktlarni tahlil qilishi, umumlashtirish va shu asosida xulosa chiqara olish malakasiga ega bo'lishi talab qilinadi.

"O'zbek xalq og'zaki ijodi" fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiradigan masalalar doirasida bakalavr:

- o'zbek xalq og'zaki ijodining o'ziga xos xususiyatlarini;
- o'zbek folklorining janrlar tizimi, har bir janrlarning o'ziga xos xususiyatlarini;
- taniqli xalq shoiri va baxshilarining hayoti va ijodiy faoliyatini;
- o'zbek folkloriga xos bo'lgan milliy, diniy-falsafiy qarashlar haqida mustaqil fikr va tasavvurlarga ega bo'lish.
- o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalarini to'plash;
- o'zbek xalq og'zaki ijodining taraqqiyot bosqichlarini o'rganish;
- o'zbek xalq og'zaki ijodi haqida olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;
- o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalarini tahlil qilishi lozim.

Nazorat turlari va shakli

Oraliq nazoratlar soni	2 (ikki) marta
1-oraliq nazorat muddati	ma'ruza mashg'ulotlari yakunlangach belgilangan kunda
1-oraliq nazorat shakli	o'tilgan mavzular bo'yicha 30 savoldan iborat test sinovi
2-oraliq nazorat muddati	amaliy mashg'ulotlar yakunlangach reyting qaydnomasiga qo'yiladi
2-oraliq nazorat shakli	amaliy mashg'ulotlar yakuni, shuningdek, mustaqil ta'lim bo'yicha bajargan topshiriqlariga qo'yilgan baholar umumlashtiriladi
Yakuniy nazorat shakli	Og'zaki. Fan bo'yicha o'tilgan mavzular yuzasidan 3 savoldan iborat savollar varianti tuziladi.

TALABALAR BILIMINI BAHOLASHDA QUYIDAGI MEZONLARGA AMAL QILINADI:

1-ORALIQ BAHOLASH.

Oraliq nazoratni test sinovi asosida o'tkazish mezonlari

Baho	Test savollari javob berish natijalari
“5” A’lo	to’g’ri javoblar 26-30 oraliq’ida bo’lsa
“4” Yaxshi	to’g’ri javoblar 22-25 oraliq’ida bo’lsa
“3” Qoniqarli	to’g’ri javoblar 17-21 oraliq’ida bo’lsa
“2” Qoniqarsiz	to’g’ri javoblar 17 tadan kam bo’lsa

Izoh: fanning ma’ruza mashg’ulotlari yuzasidan tuzilgan 30 savoldan tashkil topgan test test sinovi o’tkaziladi.

2-ORALIQ BAHOLASH.

ORALIQ NAZORATNI OG’ZAKI TURDA O’TKAZISH MEZONI

Baho	Talabalar bilimiga qo’yiladigan talablar
“5” A’lo	talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qilsa, ijodiy fikrlay olasa, mustaqil mushohada yuritsa, olgan bilimini amalda qo’llay olsa, fan (mavzu) mohiyatini tushunsa, bilsa, ifodalay olsa, aytib bersa yoki yozma ifoda etolsa hamda fan (mavzu) bo’yicha tasavvurga ega bo’lsa
“4” Yaxshi	talaba mustaqil mushohada yuritsa, olgan bilimini amalda qo’llay olsa, fan (mavzu) mohiyatni tushunsa, bilsa, ifodalay olasa, aytib bersa yoki yozma ifoda etolsa hamda fan (mavzu) bo’yicha tasavvurga ega bo’lsa
“3” Qoniqarli	talaba olgan bilimini amalda qo’llay olsa, fan (mavzu) mohiyatni tushunsa, bilsa, ifodalay olsa, aytib berolsa yoki yozma ifoda etolsa hamda fan (mavzu) bo’yicha tasavvurga ega bo’lsa
“2” Qoniqarsiz	talaba fan dasturini o’zlashtirmagan bo’lsa, fan (mavzu) mohiyatini tushunmasa hamda fan (mavzu) bo’yicha tasavvurga ega bo’lmasa

Izoh: 2-oraliq nazoratda talabalarining amaliy va mutaqil ta’lim mashg’uotlaridagi faolligi topshiriqlarni bajarishi bo’yicha baholari umumlashtirilgan holda qaydnomaga tushiriladi.

FAN BO’YICHA YAKUNIY OG’ZAKI NAZORATNI BAHOLASH

Baho	Talabalar bilimiga qo’yiladigan talablar
“5” A’lo	talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qilsa, ijodiy fikrlay olasa, mustaqil mushohada yuritsa, olgan bilimini amalda qo’llay olsa, fan (mavzu) mohiyatini tushunsa, bilsa, ifodalay olsa, aytib bersa yoki yozma ifoda etolsa hamda fan (mavzu) bo’yicha tasavvurga ega bo’lsa
“4” Yaxshi	talaba mustaqil mushohada yuritsa, olgan bilimini amalda qo’llay olsa, fan (mavzu) mohiyatni tushunsa, bilsa, ifodalay olasa, aytib bersa yoki yozma ifoda etolsa hamda fan (mavzu) bo’yicha tasavvurga ega bo’lsa
“3” Qoniqarli	talaba olgan bilimini amalda qo’llay olsa, fan (mavzu) mohiyatni tushunsa, bilsa, ifodalay olsa, aytib berolsa yoki yozma ifoda etolsa hamda fan (mavzu) bo’yicha tasavvurga ega bo’lsa
“2” Qoniqarsiz	talaba fan dasturini o’zlashtirmagan bo’lsa, fan (mavzu) mohiyatini tushunmasa hamda fan (mavzu) bo’yicha tasavvurga ega bo’lmasa

Izoh: yakuniy nazoratda talabaga 3-savol (mavzu)dan iborat variantlar taqdim etiladi 1-2 savollar nazariy, 3-savol amaliy o’qish ahamiyatga ega bo’ladi. Talabaning savollarga javobi umumlashtirilganda arifmetik usul bilan o’rtacha baho qaydnomaga tushiriladi.

Baholash usullari	Ekspress testlar, yozma ishlar, og‘zaki so‘rov, prezentatsiyalar va boshqalar		
Baholash mezonlari	<p>„5“ baho (a‘lo) - Fan bo‘yicha tugallangan bo‘limlardan 3 mavzu (savol)ning barchasiga to‘liq javob bersa. Ular yuzasidan tushunchaga ega bo‘lsa hamda adabiyotlarda keltirilgan ma‘lumotlarni aytib berib, izohlasa, o‘z tushunchalarini misollar bilan erkin dalillasa hamda xulosa chiqarib bilsa. Ya‘ni: berilgan mavzu yoki savol yuzasidan xulosa va qaror qabul qilish; ijodiy fikrlay olish; mustaqil mulohaza yurita olish; olgan bilimlarini amalda qo‘llay olish; mavzu yoki savol mohiyatini tushunish; berilgan mavzu yoki savol mohiyatini bilish va bayon eta olish; mavzu bo‘yicha tasavvurga ega bo‘lish va ifoda eta olish malakasiga ega bo‘lsa.</p> <p>„4“ baho (yaxshi) - Fan bo‘yicha tugallangan bo‘limlardan 3 mavzu (savol)ning 2 tasiga to‘liq javob bersa. Ular yuzasidan tushunchaga ega bo‘lsa hamda adabiyotlarda keltirilgan ma‘lumotlarni aytib bersa. Ya‘ni: mustaqil mulohaza yurita olish; olgan bilimlarini amalda qo‘llay olish; mavzu yoki savol mohiyatini tushunish; berilgan mavzu yoki savol mohiyatini bilish va bayon eta olish; mavzu bo‘yicha tasavvurga ega bo‘lish va ifoda eta olish malakasiga ega bo‘lsa.</p> <p>„3“ baho (qoniqarli) – Fan bo‘yicha tugallangan bo‘limlardan 3 mavzu (savol)ning 1 tasiga to‘liq, qolgan 2 tasiga qisqa javob bersa. Ular yuzasidan tushunchaga ega bo‘lsa hamda adabiyotlarda keltirilgan ma‘lumotlarni aytib bersa. Ya‘ni: mavzu yoki savol mohiyatini tushunish; berilgan mavzu yoki savol mohiyatini bilish va bayon eta olish; mavzu bo‘yicha tasavvurga ega bo‘lish va ifoda eta olish malakasiga ega bo‘lsa.</p> <p>„2“ baho (qoniqarsiz) – Berilgan mavzularga javob berolmasa, umuman tushunchaga ega bo‘lmasa yoki 3 mavzuga qisman javob bersa. Qisman tasavvurga ega bo‘lsa. Ya‘ni: Fan va berilgan mavzu (saollar)ni o‘zlashtirmagan bo‘lsa; mohiyatini bilmasa; aniq tasavvurga ega bo‘lmasa; mustaqil fikrga ega bo‘lmasa.</p>		
Baholash turlari		Baholash	O‘tkazish vaqti
<p>Joriy nazorat: – Talabani oraliq nazorat turi bo‘yicha baholashda, uning o‘quv mashg‘ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi.</p>		O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2018-yil 26-sentabrdagi 3069- son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan „Oliy ta‘lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risida“gi nizomga muvofiq	Semestr davomida
<p>Oraliq nazorat: – ma‘ruza o‘qituvchisi tomonidan qabul qilinadi; – oraliq nazorat yozma ish, og‘zaki yoki test shaklida olinadi; – oraliq nazorat mavzulari kafedraning yetakchi professor-o‘qituvchilari tomonidan ishlab chiqiladi va kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi; – oraliq nazorat javobi 3 kun ichida jurnal va elektron tizimda aks ettilishi hamda talabalarga yetkazilishi shart. – talabaga oraliq nazorat turidan „2“ (qoniqarsiz) baho olsa, unga 2 (ikki) martagacha qayta topshirishga imkoniyat beriladi. – oraliq nazorat turini topshira olmagan, shuningdek, ushbu nazorat turi bo‘yicha „2“ baho bilan baholangan talaba yakuniy nazorat turiga kiritilmaydi. – oraliq nazoratni o‘tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida davriy ravishda</p>			Semestr davomida fan mavzulari 55 % – 60 % bajarilgandan so‘ng

<p>o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartibi buzilgan hollarda, oraliq nazorat natijalari bekor qilinadi hamda oraliq nazorat qayta o'tkaziladi.</p>		
<p>Yakuniy nazorat</p> <ul style="list-style-type: none"> – yakuniy nazorat turi otkaziladigan kuniga qadar talabalar joriy va oraliq ballari yig'indisidan xabardor bo'lishi shart. – yakuniy nazorat tuzilgan va tasdiqlangan komissiya a'zolari tomonidan qabul qilinadi. – mazkur fan bo'yicha yakuniy nazorat semestrning oxirgi haftasi mobaynida o'quv-uslubiy boshqarma tomonidan tuzilgan qat'iy jadval asosida belgilangan auditoriyada og'zaki, yozma yoki test shaklida o'tkaziladi. – og'zaki shaklda olingan yakuniy nazorat javobi shu kunning o'zida jurnal, elektron tizim va qaydnomalarda aks ettilishi hamda talabalarga yetkazilishi shart. 		<p style="text-align: center;">semestr davomida ajratilgan soatlar to'liq bajarilgandan so'ng</p>

IX. Asosiy va qo‘shimcha o‘quv adabiyotlar hamda axborot manbalari
Asosiy adabiyotlar:

№	Muallif	Adabiyot nomi	Nashr yili	Adabiyotning ARMdagi shifri	Adabiyotning ARMdagi inventar raqami	ARMdagi soni	ARM imzosi
	Mirzayev T. va boshqalar.	O‘zbek folklori / Darslik.	2020				
	Jo‘rayev M	Folklorshunoslik asoslari.	2009				
	Madayev O.	O‘zbek xalq og‘zaki ijodi.	2013				
	Mirzayev T. va boshqalar.	O‘zbek xalq og‘zaki ijodi xrestomatiyasi.	2008				
	Jo‘rayev M., Eshonqulov J.	Folklorshunoslikka kirish (O‘quv qollanma).	2017				

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Sh. Mirziyoev. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” to‘g‘risidagi Farmoni (Xalq so‘zi 2017 yil, 8 fevral).
3. Sh. Mirziyoev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
4. Sh. Mirziyoev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari” to‘g‘risida (Xalq so‘zi 2017 yil, 21 aprel).
6. Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. (Nazariy kurs matni). T.:1999.
7. Mirzaev T. Epos i skazitel. – Tashkent: Fan. – 410 s.
8. Turdimov Sh. Etnos va epos. – Toshkent, O‘zbekiston, 2012.
9. O‘zbek folklorshunosligi masalalari. 3-kitob. – Toshkent: “Fan”, 2010.
10. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi yodgorliklari. 100 jildlik. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2015, 2016.
11. Bekchanova S., Allamberganova N. Umumta‘lim maktablarida xalq og‘zaki ijodi namunalari o‘rgatish–Nukus, 2018.

Axborot manbalari

1. <http://natlib.uz> –Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi sayti
2. <http://ensiklopediya.uz> – O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi sayti
3. <http://ziyouz.uz> – O‘zbek va jahon adabiyoti portal
4. <http://ziyonet.uz> –O‘zbekiston milliy ta‘lim portali
5. <http://kitob.uz/> - Respublika bolalar kutubxonasi
6. <http://www.kamolot.uz> – “Kamolot” yoshlar ijtimoiy sayti
7. <http://www.infolib.uz> – Respublika Axborot kutubxona markazi
8. <http://referatlar.uz> –Referatlar, testlar, kitoblar va media ta‘lim sayti
9. <http://book.uz> – Elektron adabiyotlar kutubxonasi
10. <http://translate.google.co.uz> – Google –tarjimon sayti
11. <http://arxiv.uz> – Referatlar arxivi
12. <http://txt.uz> – Elektron kutubxona